

MEHNATGA HAQ TO'LASHI

Pirjanbaeva Altinay Karjaubay qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakultiteti, Milliy g'oya, manaviyat asoslari va huquq talimi yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Bu maqolada mehnat faolyatida eng ahamiyatli masalalardan biri bo'lgan mahnatga haqi to'lash va uning huquqiy tartibi haqida so'z boradi. Mehnatga haqi to'lash tartibi va uni huquqiy tartibga solish masalari ham ko'rib chiqiladi*

Kalit so'zlari: *Mehnat, faolyat, ish faolyati, daraja, lavozim, ish haqi, maosh, kunlik ish, vaqtbay va ishbay haqi, rag'batlantrish*

Harbir inson o'z ijtimoiy holatini yaxshilash maqsadida turli hil faolyat turlari bilan shug'illanadi. Bunday faolyatlardan ishchiga foyda keltruvchi va nizomga zid bo'lmagan turi mehnat deb ataladi. Mehnat faolyati bilan shug'illanuvchilar belgilangan tartibda o'z mehnatiga yarasha ish haqi olish huquqiga egadirlar. Ish haqi — mehnatga pul shaklida to'lanadigan haq; qiymatning o'zgargan shakli, ish kuchi (taqdim etilgan mehnat xizmati)ning bahosi.[1] Ish kuchi qiymati va narxi bevosita ish haqida ifodalanadi. Ish haqi darajasi mehnat bozorida kelishiladi. Xodim mehnat bozorida mehnatni emas, o'z ish kuchini sotadi. Ish haqi mehnatning pul shaklidagi bahosi bo'lib, uni ishga yollovchilar (korxonalar, muassasalar, tadbirkorlar) mehnat qiluvchilarga ma'lum vaqt mobaynida ma'lum miqdordagi va muayyan sifatli ishni bajarganliklari uchun to'laydilar. Yollanma xodim uchun ish haqi asosiy daromadi manbai hisoblanadi. Ish faolyatida mehnat haqi oldindan kelishilgan mehnat shartnomasida belgilanadi. Ish beruvchi harqanday holatda ham shartnomada ko'rsatilgan muddatda ishchiga o'z mehnatiga yarasha, hechqanday kamsituvsizlarsiz ish haqini berishga majburdir.

Ish haqi aholining asosiy daromad manbalaridan biri bo'lib qolayotgani hozirgi sharoitda mehnatga haq to'lashni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, uning mehnat unumdorligi, mahsulot sifatini, xodim moddiy ahvolini yaxshilashdagi ahamiyatini oshira borish muhim ahamiyatga egaligini anglatadi. Ish haqi xodim mehnatiga haq to'lash shakli bo'lib hisoblanadi.. Iqtisodiy toifa sifatida ish haqi milliy daromadning xodimlarga berilishi kerak bo'lgan, qayd etilgan qismidan iborat. Ishlab chiqarish korxonalarida olingan sof daromad, davlat muassasalarida esa davlat byudjeti hisobidan ajratiigan mablag'lar ish haqining manbai hisoblanadi.

Mehnat Kodeksining 253-moddasida ko'rsatilgan muddatda ish beruvchi korxonada xodimlariga bajargan ishga qarab, korxonaning moliyaviy ahvolidan qariyb nazar mehnat ish haqini to'lashi shart[2] Xodimning iltimosiga binoan ish vaqtidan tashqari bajargan ish soatlari uchun teng keladigan otgul ham berilishi mumkin. Qo'shimcha ish soati uchun boshqa dam olish kunlari berilgan taqdirda kamida bir hissa miqdorda mehnat haqi to'lanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mehnatning miqdori va sifatiga qarab mehnatga haq to'lashning, asosan, vaqtbay va ishbay tizimlari qo'llanadi. Vaqtbay ish haqi shaklida xodim oladigan ish haqi miqdori ishlagan vaqt bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni ish haqi miqdori mehnat unumdorligi va intensivlik darajasiga bog'liq emas. Ishbay ish haqi xodimning ma'lum vaqt mobaynida tayyorlangan mahsuloti miqdori bilan o'lchanadi. Ishbay ish haqining ko'rinishlaridan biri — akkord ish haqi. Bunda jamoa yoki ayrim xodimga ish hajmi oldindan belgilab beriladi, umumiy haq summasi kelishib olinadi. Ish butunlay yakunlanganidan keyin ish haqi oxirigacha to'lanadi. Ish haqining bunday shaklidan ko'pincha qurilishda foydalaniladi. Bulardan tashqari aksar mamlakatlarda ish haqidan tashqari mehnatda erishgan yutuqlari uchun mukofotlash ham mavjud. Bular vaqtbay mukofot, ishbay mukofot tizimlari hamda korxonada olingan foyda hisobidan ajratiladigan moddiy rag'batlantirish fondidan mukofotlash tizimidir[3]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musayeva, Zamira; Yusupov, Qodirjon (2000-2005). "Ish haqi". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi Toshkent 2022-yil
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ish_haqi